

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
242 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan inverter, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	



UDK: 371.6:711.4(575)

QISHLOQ AHOLI HUDUDLARIDAGI ZAMONAVIY INNOVATSION O'ZGARISHLARINING O'RTA TA'LIM MAKTABLARI TUZILISHIDAGI TA'SIRI

Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li

Andijon davlat texnika instituti
"Arxitektura va gidrotexnika"
kafedrası assistant-o'qituvchisi

Annotatsiya: Respublikamiz hukumati qishloq hududlarini tubdan o'zgartirish, hududlarga madaniy – maishiy xizmat qilish tizimini rivojlantirish, hududlarda ijtimoiy infrastruktura yaratish muammolariga katta ahamiyat bermoqda. Ushbu maqolada qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzulishidagi ta'siri IMRAD (Kirish, Metodologiya, Natijalar va Tahlil, Xulosa) formati asosida yoritilgan. Qishloqlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarini shakllantirish va qishloq o'rta ta'lim maktablarining tipologiyasi va tarmoqlarini shakllantirish hamda qishloq aholi hududlari uchun tipologik takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: chizma geometriya va muhandislik grafikasi, zamonaviy ta'lim, 3D modellashtirish, virtual reallik, interfaol metodlar, masofaviy ta'lim.

Abstract: The government of our republic attaches great importance to the radical transformation of rural areas, the development of the system of cultural and household services in the regions, and the creation of social infrastructure problems in the regions. In this article, the impact of modern innovative studies in rural areas on the formation of secondary schools is highlighted based on the IMRAD (Introduction, Methodology, Results and Analysis, Conclusion) format. Formation of general secondary education schools in villages and formation of typology and networks of rural secondary education schools and typological proposals for rural population areas are given.

Keywords: Drawing geometry and engineering graphics, modern education, 3D modeling, virtual reality, interactive methods, distance education.

Аннотация: Правительство нашей республики уделяет большое внимание коренному преобразованию села, развитию системы культурно-бытового обслуживания населения в регионах, решению проблем создания социальной инфраструктуры в регионах. В данной статье рассматривается влияние современных инновационных исследований в сельской местности на формирование средних школ на основе формата IMRAD (Введение, Методология, Результаты и Анализ, Заключение). Формирование общеобразовательных школ в селах, формирование типологии и сети сельских общеобразовательных школ, даны типологические предложения для сельских населенных пунктов.

Ключевые слова: Начертательная геометрия и инженерная графика, современное образование, 3D-моделирование, виртуальная реальность, интерактивные методы, дистанционное образование.

KIRISH

Respublikamiz hukumati qishloq hududlarini tubdan o'zgartirish, hududlarda umumta'lim maktablari binolarini va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini tubdan yangilash va kapital rekonstruksiya qilish umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini yaxshilashga katta ahamiyat bermoqda. 2020-yil 31-dekabrda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Zamonaviy maktab" talablari asosida loyihalarni ishlab chiqish, kelishish hamda qurilish-montaj ishlarini nazorat qilish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 832-son¹ qarori qabul qilindi[1].

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan nizomda respublikadagi umumta'lim obyektlarida sifatli hamda zamonaviy qurilish ashyolaridan foydalanishni yo'lga qo'yishda ularni obyektlar uchun ishlab chiqiladigan texnik topshiriqlarda aniq belgilash mexanizmi markazlashgan holda joriy etish mexanizmi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan[2]. Bugungi kunda Izboskan tumanining bir qancha maktablari mukammal ta'mirga muhtoj, afsuski, kichik qishloqlardagi kam sonli boshlang'ich va o'rta ta'lim maktablari hanuzgacha paxsadan qurilganicha saqlanib qolingan. Aholisi zich joylashgan qishloqlarda esa qo'shimcha o'quv binolariga ehtiyoj mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda qishloq aholi hududlaridagi aholi sonini o'sib borishi va ijtimoiy rivojlanish natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablarining tuzilishini shakllantirishda zamonaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqot jarayonida mavzuga oid bir qator adabiyotlarni tahlil qilindi va ulardagi ma'lumotlarga tayangan holda tadqiqot jarayonini asoslandi.

Jumladan bir qator hukumat qarorlari:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son² Farmoni [3].

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustdagi "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 666-son³ qarori [4].

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi "Obod qishloq" dasturini amalga oshirish bo'yicha Qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3630-son⁴ qarori [5].

Tadqiqot mavzusiga oid bo'lgan asosiy adabiyotlar:

X. K. Tursunov, M. U. Umarov, Sh. D. Achilov. Uzbekistan qishloq aholi punktlarini me'moriy rejali tashkillashtirish. Toshkent. TAQ, I. 2012 y.

X. M. Ubaydullaev, M. M. Inag'omova «Turar joy va jamoat binolari tipologik asoslari» T. 2009.

Ubaydullaev X.M. Inagomova M.M. Turar joy va jamoat binolarining tipologik asoslari. T. 2009 y.

Гузеев В. В. Планирование результатов образования и образовательная технология. М. Народное образование, 2000. - 232с. - (Серия «Системные основания образовательной технологии»).

И. С. Шукуров. Градостроительство, планировка сельских населенных мест. Учебное пособие. МАРИХИ, Москва. 2016 г.

Ushbu tadqiqot ishida Andijon viloyati qishloq aholi hududlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari tipologiyasi va tarmoqlarini shakllantirish" (Izboskan tumani miqyosida) tarkibini rivojlantirish, qishloq hududlarining tabiiy iqlim sharoiti, joylashuv turlari, joylashuvdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, demografik tarkibi, maktablarining tipologiyasini, hamda qishloq aholi hududlaridagi maktablarning hozirgi holatini o'rganib chiqish hamda taklifiy loyihalarni taqdim etish nazarda tutilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishimiz jarayonida turli tadqiqot metodlaridan foydalandik. Jumladan, tajriba sinov, so'rovnoma, statistik tahlil usullaridan foydalangan holda mazkur mavzu mohiyatini ochib berishga harakat qildik. Tadqiqot uslubi mavzuga oid tuman arxitektura bo'limlaridan Andijon viloyati Izboskan tumani qishloq hududlarini o'rganib undagi mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablarini hozirgi holatini tahlil qilish asosida yangi takliflar berildi.

Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati: Maqolada ko'rib chiqilgan muammolar «qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish» va «Arxitektura» ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalarida «Qishloq qurilish loyiha tashkilotlari», amaliyotida ishlayotgan mutaxassis arxitektorlar uchun viloyat qishloqlarida umumta'lim maktablarini rekonstruksiya qilish va loyihalash amaliyotini takomillashtirishda foydalaniladi.

1 <https://lex.uz/docs/-5194168>

2 <https://lex.uz/docs/6008663>

3 <https://lex.uz/docs/-3866498>

4 <https://lex.uz/docs/-3604663>



Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati: Andijon viloyati qishloqlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarini tarkibini rekonstruksiya qilish va shakllantirish, loyihalash amaliyotini takomillashtirishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Innovatsiya” soʻz lotin kelib chiqishi. “Novatio” “yangilash”, “oʻzgartirish” degan maʼnoni anglatadi va “in” “yoʻnalishda” deb tarjima qilingan. Soʻzma-soʻz “innovatio” - “oʻzgarish yoʻnalishida”. Bundan tashqari, bu shunchaki har qanday yangilik emas, balki uni qoʻllashdan keyin faoliyat samaradorligi va sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Ostida texnologiya(yunoncha techne “sanʼat”, “mahorat”, logos “soʻz”, “bilim” - sanʼat haqidagi fan) deganda har qanday biznesda yoki biror narsa ishlab chiqarishda qoʻllaniladigan usullar va jarayonlar majmui tushuniladi. Har qanday innovatsiya texnologiya orqali amalga oshirilishini topadi. Shunday qilib, innovatsion texnologiya- bu inson faoliyatining turli sohalarida taraqqiyotni taʼminlash va samaradorlikni oshirish uchun yangi narsalarni yaratish yoki mavjudini takomillashtirish texnikasi va jarayoni. Taʼlimdagi innovatsiyalar juda munozarali masala. Taʼlim oldida turgan muammo, asosan, samaradorlikdir. Bu yerda samaradorlik deganda investitsiya qilingan resurslar va natijalar oʻrtasidagi oʻquvchilarning samaradorligi va tengligi nuqtayi nazaridan muvozanat tushuniladi [6]. Innovatsiyalar taʼlimga qanday qiymat qoʻshishi mumkin? Avvalo, taʼlim sohasidagi innovatsiyalar taʼlim natijalari va taʼlim sifatini yaxshilashi mumkin. Masalan, taʼlim tizimi yoki oʻqitish usullaridagi oʻzgarishlar taʼlim jarayonini moslashtirishga yordam beradi. Shaxsiylashtirilgan taʼlimning yangi tendensiyalari asosan maktablarni tashkil etishning yangi usullariga va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishga tayanadi. Koʻplab rivojlangan(AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya) davlatlarda umumtaʼlim maktablarida asosan dars mashgʻulotlari tabiiy fanlar amaliyot bilan uzviy bogʻliqlikda olib boriladi. Bundan tashqari yuqorida koʻrsatilgan rivojlangan davlatlarning zamonaviy maktablarida bolalarning sogʻlomashtirishga yoʻnaltirilgan sport majmualari kiritilgan [7]. Xususan Amerika Qoʻshma Shtatlarida maktablarida taʼlim tizimi Amerika Qoʻshma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil oʻqiydilar. Taʼlim tizimi quyidagicha tashkil etilgan: 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida. Boshlangʻich maktab. Bu bosqich 1–5-sinflarni oʻz ichiga oladi. Toʻliq boʻlmagan oʻrta maktab. Bu bosqich 6–8-sinflardan iborat. Yuqori maktab. Bu bosqich 9–11-sinflar boʻladi [8].





Amerika maktablarida 9-sinf gacha asosiy eʼtibor matematikaga emas, balki tabiiy fanlarga qaratiladi, yuqorida tasdiqlangan yagona dasturlar boʻlmaydi. Oʻquvchilar uchun yagona, majburiy darsliklar, qoʻllanmalar yoʻq. Amerika maktablarida texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan, sinflar kompyuterlashtirilgan. Har bir maktabda boshlangʻich sinf oʻquvchilarini tashiydigan maxsus avtobuslar, stadionlar, turli laboratoriyalar bor [9].

Bugungi kunda innovatsion jarayonlar oʻquv amaliyotining ajralmas qismiga aylandi va har bir maktab hayotida faol ishtirok etmoqda. Taʼlimni rivojlantirish dasturiga muvofiq eng ustuvor yoʻnalishlardan bolalarning sogʻligʻi va jismoniy rivojlanishini taʼminlash; yangi avlod oʻquv dasturlari va taʼlim texnologiyalariga oʻtish; iqtisodiy va ekologik hamda amali taʼlim, shuningdek kompyuter savodxonligi boʻyicha kurslarni joriy etish; aholining ehtiyojlarini qondirish uchun taʼlim xizmatlarining tarmogʻi va tarkibini kengaytirish; taʼlimning mintaqaviy tarkibiy qismini joriy etishdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch” kitobida taʼkidlab oʻtganidek “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obroʻ-eʼtibori avvalam bor farzandlarimizning unib-oʻsib, ulgʻayib, qanday inson boʻlib hayotga kirib borishiga bogʻliqdir”. Yurtboshimiz rahnamoligida yosh avlodni har tomonlama sogʻlom qilib voyaga yetkazish, ular uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish zamonaviy maktablar hamda zamonaviy sport majmua inshootlari barpo etilishiga alohida eʼtibor qaratilmoqda.




Umumtaʼlim maktablaridagi fanlarni amaliy mashgʻulotlar bilan uzvi bogʻlash zarur. Agar nazariyada oʻrgatilayotgan fanlarni amaliyotda koʻra bilangina vaqt oʻtishi bilan oʻquvchilarni yaxshilanishini koʻrishimiz mumkin. Oʻquvchilarga oʻrganganlarini sinfda qoʻllashlari mumkin boʻlgan sharoit boʻlishi kerak. Masalan, oʻquvchilar kimyo darsida, ular kimyoviy reaksiyalarni kuzatish va koʻrsatish mumkin boʻlgan laboratoriyaga olib borish, mehnat xonalarida oʻzlari qoʻli bilan nazariyada oʻrgangan uskunalarida biror ishni bajarib koʻrish, biologiya fanlarini esa tashqarida biologik zonalarda, qish kunlarida esa yopiq botanik zonalarda dars jarayonlarini olib borilishi oʻquvchilarni diqqatini yanada jalb qiladi.

Izboskan tumanidagi ayrim umumtaʼlim maktablarida Kimyo, Biologiya, Fizika hamda mehnat fanlarni amaliyot bilan bogʻab oʻtish qisman yoʻlga qoʻyilgan. Izboskan tumani Poytugʻ sh. A Navoiy, hamda Chekyor MFY larda joylashgan 8-25-maktablarda hanuzgacha Biologiya xonasi umuman yoʻq, qolgan ayrim maktablarda xususan Shodlik 4, Toʻrabod 8, Botirabod 13, Obod 16, Xaqlobod 19, Beshmirza 35, Qum koʻcha 36, Anorzor 41, Birlashgan 42, Elatan 44, Abduraxmon jome 45, Manguberdi 46, Solboshi 47, Potyugʻ sh. Oybek MFY larda joylashgan umumtaʼlim maktablarida xonalar yetishmasligidan Kimyo, Biologiya fanlari bitta xonada oʻtilmoqda. Shu muammolarni yechish uchun quyidagi jadvalda innovatsion oʻzgarishlarni kiritish imkoniyatlar koʻrsatilgan (2-jadval).

2-jadval. Izboskan tumani umumta'lim maktablariga kiritilayotgan innovatsion o'zgarishlar.

Maktabning qurilgan yili va nomi	Maktabning joylashuv o'rne	Umumiy yer maydoni, m ²	Maktabga kiritilishi kerak bo'lgan qo'shimcha bino va innovatsion takliflar.
45-umum o'rta ta'lim maktabi 2029-yil	Izboskan tumani Abduraxmon Jomi MFY	 4203m ²	Ushbu maktabga qo'shimcha 190 ta o'quvchiga sinf xonalariga talab borligi uchun va aholini o'sish o'ylagan xolda 210 o'rinli yangi o'quv bino, mehnat xonasi, zamonaviy yopiq issiq xona, ochiq sport maydonchalari, va landshaft yechimlari taklif qilindi.
8-umum o'rta ta'lim maktabi 2094-yil	Izboskan tumani To'rabod MFY	 5331m ²	Ushbu maktabga qo'shimcha o'quv binoga ehtiyoj bor lekin hududi kichik bo'lganligi uchun faqatgina landshaft yechimi taklif qilindi.
16-umum o'rta ta'lim maktabi 1989-yil	Izboskan tumani Obod MFY	 7600m ²	Ushbu maktabga qo'shimcha 190 ta o'quvchiga sinf xonalariga talab borligi uchun va aholini o'sish o'ylagan xolda 210 o'rinli yangi o'quv bino, mexnat xonasi, 105 o'ringa mo'ljallangan oshxona va bufet, omborxona, zamonaviy yopiq issiq xona, ochiq sport maydonchalari, va landshaft yechimlari taklif qilindi.
29-umum o'rta ta'lim maktabi 1974-2018 yil	Izboskan tumani Yuqir chuvama MFY	 16424 m ²	Ushbu maktabga qo'shimcha 861 ta o'quvchiga sinf xonalariga talab borligi uchun va aholini o'sish o'ylagan xolda 315 o'rinli yangi o'quv bino, zamonaviy yopiq issiq xona, ochiq sport maydonchalari, hamda landshaft yechimlari taklif qilindi.
15-umum o'rta ta'lim maktabi 1972-yil	Izboskan tumani Gudur MFY	 22189m ²	Ushbu maktabga qo'shimcha, mexnatxonasi zamonaviy yopiq issiq xona, ochiq sport maydonchalari, va landshaft yechimlari taklif qilindi.



11-umum o'rta ta'lim maktabi 1972-yil	Izboskan tumani Istiqlol MFY	 28440m ²	Ushbu maktabga qo'shimcha zamonaviy yopiq issiq xona, ochiq sport maydonchalari, va landshaft yechimlari taklif qilindi
5-umum o'rta ta'lim maktabi 1986-2019-yil	Izboskan tumani Poytug' sh. A Navoiy MFY	 8662m ²	Ushbu maktabga qo'shimcha zamonaviy yopiq issiq xona, ochiq sport maydonchalari, va landshaft yechimlari taklif qilindi.
2-umum o'rta ta'lim maktabi 1980-yil	Izboskan tumani Poytug' sh Shinam MFY	 16200m ²	Ushbu maktabga qo'shimcha mehnat xona, zamonaviy yopiq issiq xona, ochiq sport maydonchalari, va landshaft yechimlari taklif qilindi.
9-umum o'rta ta'lim maktabi 1991-yil	Izboskan tumani Jonobod MFY	 20915m ²	Ushbu maktabga qo'shimcha omborxona, zamonaviy yopiq issiq xona, hojatxona, ochiq sport maydonchalari, va landshaft yechimlari taklif qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Izboskan tumani qishloq va shahar aholisi asosan Agrosanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini fermer xo'jaliklarida yetishtirish bilan shug'ullanadi. Tumanda to'rtta shahar tipidagi katta qishloqlar mavjud bo'lib ularda yengil sanoat ishlab chiqarish korxonalari h ozirda o'z faoliyatini olib bormoqda. Shu katta qishloqlar maktablarida korxonalar ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat darslari shu yo'nalishlarga qarab olib borilishi aniqlandi.




Aholi hududlarini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki qishloq aholi hududlari unchalik katta bo'lmasada lekin aholisi juda xam zich joylashganligi aniqlandi. Bu holat o'z navbatida maktab yoshidagi bolalarning sonini ko'pligi qishloq maktablarda o'qish jarayonini ikki -uch smenada tashkil qilishga olib keldi. Bundan kelib chiqadiki qishloq hududlardai maktablarda yangi o'quv bloklari va qo'shimcha sinf xonalarni qurish ehtiyojini talab etadi.

Zamonaviy chet el o'rta talim maktablarini o'rganish jarayonida ularning tarkibiga kiritilgan innovatsion yangiliklardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

Yuqoridagi xulosalar asosida biz maktablarning joylashuv holatidan kelib chiqib quyidagi innovatsion o'zgarishlarni kiritdik. Issiq xona, qo'shimcha mehnat ustaxonalari, tabiiy fanlar uchun ochiq tajriba maydonlari va maktab hududini ko'kalamzorlashtirish yechimlari taklif etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Zamonaviy maktab" talablari asosida loyihalarni ishlab chiqish, kelishish hamda qurilish-montaj ishlarini nazorat qilish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 832-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5194168>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF–134-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6008663>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustdagi "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 666-son qarori <https://lex.uz/docs/-3866498>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 29-martdagi "“Obod qishloq” dasturini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ–3630-son qarori <https://lex.uz/docs/-3604663>
6. Петухова Л. В. 2 Историко-педагогическая типология сельских малокомплектных образовательных учреждений как основание моделирования разновозрастной школы
7. Иноғамов Б. И. Замонавий бино ва иншоотларни лойиҳалаш. -Тошкент - 2010
8. Standards and indicators manual (1993-1994 school year). The Missouri school improvement program. Jefferson city (Mo), 1993.
9. O.O.Abdurahmonov . Andijon viloyati qishloq aholi hududlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari tipologiyasi va tarmoqlarini shakllantirish"(Izboskan tumani miqyosida). Magistrlilik dissertatsiyasi. SamDAQU. 2023
10. www.ziyo.net
11. <https://adu.uz/uz/news/article/1528>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100